


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart)

2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 196,1 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 11,7 % ga pasaydi. Shu jumladan, eksport hajmi 86,8 mln.AQSh dollarga (21,5 % ga ko'paydi) va import hajmi 109,3 mln. AQSh dollariga (27,4 % ga pasaydi) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 22,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
(mln.AQSh dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo`shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo`naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2020-yil yanvar-mart oyida tashqi savdo aylanmasi hajmi shahar va
tumanlar kesmida**

(mln. AQSH. dollari)

	<i>Yanvar-mart</i>		<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda</i>
	<i>2019-yil.</i>	<i>2020-yil.</i>	
Viloyat jami	222 030,5	196 101,3	88,3
Namangan sh	80 281,0	75 745,7	94,4
Mingbuloq	401,5	3 407,6	8,4 m.
Kosonsoy	17 412,9	10 210,4	2,1 m.
Namangan	21 096,5	18 513,8	87,8
Norin	6 806,0	11 554,0	3,8 m.
Pop	7 920,8	7 435,0	2,3 m.
To'raqo'rg'on	18 432,5	22 268,4	120,8
Uychi	17 513,3	9 995,8	57,1
Uchqo'rg'on	11 734,6	4 982,4	42,5
Chortoq	3 385,5	4 693,5	138,6
Chust	5 826,9	9 108,9	156,3
Yangiqo'rgon	6 625,6	8 443,8	3,0 m.
Jismoniy shaxslar	24 593,4	9 742,0	39,6

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**



(ming. AQSh dollarri)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				Ulushi foizda	o`zgarish sur`ati foizda
Rossiya	51 815,6	32 310,8	19504,8	26,4	105,9
Xitoy	43 540,8	9 024,6	34516,2	22,2	74,7
Qirg`iz respublikasi	21 548,7	19 914,1	1634,6	11,0	157,9
Qozog`iston	14 320,3	6 222,3	8098	7,3	76,9
Turkiya	9 364,5	3 507,8	5856,7	4,8	39,2
Shvetsariya	9 249,5	-	9249,5	4,7	47,8 p.
Yaponiya	6 393,2	-	6393,2	3,3	35,3
Germaniya	5 817,2	1 084,8	4732,4	3,0	123,0
Koreya Respublikasi	5 221,3	28,4	5192,9	2,7	78,2
Vengriya	2 745,2	-	2745,2	1,4	435,7 p.
Ukraina	2 527,9	2 054,7	473,2	1,3	67,4
Malayziya	1 984,9	-	1984,9	1,0	2,9 p.
Hindiston	1 920,1	226,8	1693,3	1,0	78,0
Turkmaniston	1 894,8	1 175,6	719,2	1,0	162,4
Polsha	1 777,3	1 513,7	263,6	0,9	94,3
Pokiston	1 573,4	1 573,4	-	0,8	5,8 p.
Iraq	1 229,8	1 225,5	4,3	0,6	3,4 p.
Eron	1 050,9	214,6	836,3	0,5	109,9
Tojikiston	1 046,4	923,3	123,1	0,5	4,3 p.
Litva	1 016,7	19,8	996,9	0,5	33,4
Afg`oniston	948,7	948,7	-	0,5	8,4 p.
Italiya	836,5	389,3	447,2	0,4	76,5
Portugaliya	810,9	805,1	5,8	0,4	135,8
Belarus	772,5	629,9	142,6	0,4	82,4
Moldova	575	575	-	0,3	162,1

EKSPORT

2020-yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi 86,8 mln.AQSh dollarga (21,5 % ga ko'paygan) teng bo`ldi. eksport tarkibida tovarlarning ulushi 96,8 % ga ega bo`lib, bular asosan boshqa turdagи mahsulotlar (6,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (17,9 %), mashina va asbob-uskunalar (3,2 %), shuningdek, yengil sanoat (61,7 %) guruhlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tuzilmasi



Xizmatlar eksporti hajmi 2791,3 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,2 % ni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 25,3 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda</i>	umumiylajmga nisbatan, foizda	ming. AQSh doll.	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda</i>	umumiylajmga nisbatan, foizda	ming. AQSh doll.	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda</i>	umumiylajmga nisbatan, foizda
Eksport	86 753,7	121,5	100,0	64 018,5	116,9	100,0	22 735,2	136,6	100,0


Paxta - tolasi	343,1	-	0,4	-	-	-	343,1	-	1,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	14 929,6	72,6	17,2	8 809,3	47,2	13,8	6 120,3	3,2 m.	26,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	767,2	122,9	0,9	691,0	114,3	1,1	76,2	3,9 m.	0,3
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Qora va rangli metallar	1 890,1	7,5 m.	2,2	1 870,3	7,8 m.	2,9	19,8	147,8	0,1
Mashina va asbob- uskunalar	2 564,3	82,2	3,0	2 540,1	103,0	4,0	24,2	3,7	0,1
Yengil sanoat	53 546,9	134,7	61,7	39 440,5	139,8	61,6	14 106,4	122,3	62,0
Xizmatlar	2 791,3	125,3	3,2	1 705,0	80,1	2,7	1 086,3	10,1 m.	4,8
Boshqalar	9 921,2	2,5 m.	11,4	8 962,3	5,8 m.	14,0	958,9	39,7	4,2

**2020-yil yanvar-mart oylarida jami eksport hajmi
shahar va tumanlar kesimida**

(ming AQSH dollari)

	<i>Yanvar-mart</i>		<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda</i>
	<i>2019-yil.</i>	<i>2020-yil.</i>	
Viloyat jami	71 381,7	86 753,7	121,5
Namangan sh	24 725,9	25 423,1	102,8
Mingbulloq	243,5	2 254,0	9,2 m.
Kosonsoy	6 575,3	6 005,8	2,7 m.
Namangan	8 644,6	3 939,6	45,6
Norin	209,6	5 620,8	4,0 m.
Pop	1 979,5	2 861,5	144,6
To'raqo'rg'on	7 179,1	16 819,7	2,3 m.
Uychi	3 669,3	5 036,6	137,3
Uchqo'rg'on	8 219,6	4 162,0	50,6
Chortoq	1 213,9	3 515,8	2,9 m.
Chust	3 861,9	5 154,7	133,5
Yangiqo'rg'on	4 160,6	4 145,5	4,3 m.
Jismoniy shaxslar	698,9	1 814,6	13 m.

Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, % da




Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respuplikasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Turkiya, Ukraina va Pokiston hissasiga to`g`ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 86,0 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respuplikasi, Qozog'iston va Qirg'iz respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko`rishimiz mumkin.

IMPORT


2020-yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 109,3 mln. AQSh dollariga (27,4 % pasayish) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob- uskunalar (39,6 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (19,2 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (13,3 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tuzilmasi

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



Xizmatlar importi hajmi 276,3 ming. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,3 % ini tashkil etdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 19,6 % pasaygani kuzatilgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari xizmatlaridan iborat bo`ldi.

Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda	ming. AQSh doll.	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda	ming. AQSh doll.	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda


Import	109 347,6	72,6	100	30 703,7	91,9	100	78 643,9	67,1	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	14 566,8	104,6	13,3	9 405,6	140,4	30,6	5 161,2	71,4	6,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	20 949,3	68,4	19,2	3 886,5	58,6	12,7	17 062,8	71,1	21,7
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2 640,7	3,3 m.	2,4	2 586,4	4,6 m.	8,4	54,3	24,0	0,1
Qora va rangli metallar	8 303,1	188,6	7,6	3 444,4	2,0 m.	11,2	4 858,7	179,6	6,2
Mashina va asbob-uskunalar	43 274,7	59,3	39,6	2 171,7	63,5	7,1	41 103,0	59,1	52,3
Xizmatlar	276,3	80,4	0,3	57,7	5,9 m.	0,2	218,6	65,5	0,3
Boshqalar	19 336,7	70,0	17,7	9 151,4	63,6	29,8	10 185,3	76,9	13,0

**2020-yil yanvar-mart oylarida jami import hajmi
shahar va tumanlar kesimida**

(ming AQSH dollari)

	<i>Yanvar-mart</i>		<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda</i>
	<i>2019-yil.</i>	<i>2020-yil.</i>	
Viloyat jami	150 648,8	109 347,6	72,6
Namangan sh	55 555,1	50 322,6	90,6
Mingbuloq	158,0	1 153,6	2,3 m.
Kosonsoy	1 0837,6	4 204,6	38,8
Namangan	12 451,9	14 574,2	117,0
Norin	6 596,4	5 933,2	3,6 m.
Pop	5 941,3	4 573,5	2,6 m.
To'raqo'rg'on	11 253,4	5 448,7	48,4
Uychi	13 844,0	4 959,2	35,8
Uchqo'rg'on	3 515,0	820,4	23,3
Chortoq	2 171,6	1 177,7	54,2
Chust	1 965,0	3 954,2	2,0 m.
Yangiqo'rgon	2 465,0	4 298,3	2,2 m.
Jismoniy shaxslar	23 894,5	7 927,4	33,2

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi,
% da**



2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatga 55 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo`lgan Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Qozog`iston va Turkiya kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 8 8811,3 ming. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 81,2 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:(69)-227-84-89**